

ADABIY TA'LIMDA O'QITISHNING AYRIM MUAMMOLARI

Parda Alimov

TerDPI professori v.b.

Annotsatsiya: Yurtimizda ijtimoiy, siyosiy munosabatlar jamiyatda tub ijtimoiy tafakkurni o'zgarishini talab etmoqda. Bolaning fikrini shakllantirishda, unga dastlab saboq o'rgatishda ma'naviy-milliy qadriyatlarini paydo bo'lishida har tomonlama tabiat va jamiyat haqida qarashlarni uqtirishda, jamoa tarbiya usulini olib kirishda maktabning o'rni beqiyosdir.

Kalit so'zlar: ilmiy, nazariy, estetik, metodik, samimiylik, oriyat, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim

Maktabda adabiyot darsini o'tish, o'quvchilar qalbiga badiiy asarlarda zikr etilgan g'oyani yetkazish ushbu fan o'qitilayotgan davrdan boshlab, hozirgi kunda ham hal etilishi o'ta dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Shuni alohida qayd etish kerakki, hatto oliy ma'lumotga (bakalavr) mutaxassisligiga ega adabiyot o'qituvchilari ushbu fanni o'qitishdan maqsad yozuvchining hayot va ijod yo'lini bilish va ana shuni o'quvchilarga yetkazishdan iborat deb bilishadi. Ushbu satrlar muallifi ko'p yillik tajribasiga asoslanib, o'ta achinarli bir hodisani ming istihola bilan aytishga qaror qildi. Ya'ni o'qituvchilar (ona tili va adabiyoti o'qituvchilari) qishloqlarda yaxshigina maosh olishadi. Bu yerda ko'proq badiiy tafakkur, badiiy idrok, go'zallikka mehr emas, balki oylikka o'chlik ustun turadi. O'qituvchi cho'ntagini o'ylaydi, davlat va adabiyot manfaati xor bo'ladi.

Bu tur o'qituvchilar oylik o'qituvchilari hisoblanadi. Shuning uchun ular oliy ta'lim dargohlarini bitirishgan. Ularning maqsad va muddaolarini o'zgartirib bo'lmaydi. Hatto ularda fikrlash san'ati yo'q, kitob bo'lmasa ularning holiga voy. Biz o'qituvchi savodxonligini unutib qo'ydik. Hatto yillab asar, gazeta va jurnal o'qimayotgan o'qituvchilar maktabda dars berishda davom etaveradi. Savodsizlikni tub ildizlarini topgunimizcha yana yangi avlod savodsizlar yetishadi.

Keyingi vaqtlarda o'qituvchining obro'si, sha'ni-shuhrati tushib ketdi degan muammolar ko'payib ketdi. Ko'pchilik buyuk o'zbek shoiri A.Navoiy o'z shogirdlariga ustoz rutubatida muomala qilganini biladi. Shuni alohida qayd etish kerakki, A.Navoiy hatto ustozining farzandlariga ham yuksak ehtirom ko'rsatgan.

Bizningcha, o'qituvchining obro'sini hech kim tushirgani yo'q. O'qituvchining o'zi oylik izidan quvib o'z ustida ishlaymay qo'ydi, yangi adabiyotlarni bilmaydi, almisoqdan qolgan ko'cha bolalari biladigan tasavvurni bilib qoldi, xolos.

Bizda savodi yetarli, har tomonlama bilimlarga ega o‘qituvchilar anqoning urug‘i bo‘lib qoldi. Ilgari o‘qituvchi desa, qishloq hayiqar edi. Endi esa o‘qituvchi qishloq davrasidan qochadi. Zukko, bilimdon, astoydil bilimga intiluvchi bolalardan qo‘rqadi.

Qisqasi, o‘qituvchi o‘z nufuzini o‘zi ko‘tarishi kerak. Chunki xalq, davlatimiz hamma sharoitni yaratib bergan.

Yuqorida aytilgan fikr-mushohadalar sub‘ektiv xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchilarning juda oz qismini tashkil etadi. Bizning fikrlarimiz ular uchun ogohlik qo‘ng‘irog‘i bo‘lib yangrashi kerak. Hozirgi davrda savodsiz o‘qituvchi, badiiy adabiyot, jurnal va gazeta o‘qimaydigan ustozlar oramizda bo‘lishi mumkin emas.

Biz shu o‘rinda maktabda adabiyot o‘qitish masalalari hamda adabiyot darsliklarining sifati, adabiyot ta‘limga nuqtayi nazar, hamda asosiy muammo: adabiy ta‘limni o‘quvchiga qanday yetkazish, ya‘ni qanaqa qilib o‘quvchiga badiiy tafakkurni, so‘z san‘atni tushuntirish, go‘zallikni asl mohiyatini ochish haqida fikrlarimizni aytishni lozim topdik.

Bolaning maktabda olgan ta‘lim va tarbiyasini boshqacha ta‘lim va tarbiya usuli bilan almashtirib bo‘lmasligi isbot talab qilib bo‘lmaydigan oliy haqiqatdir. Adabiy ta‘limning ilmiy, nazariy, estetik, metodik asoslarini mukammal ishlab chiqish va buni amaliyotga joriy etish bugungi kunning zaruriyatidir. Ba‘zan, darslik mualliflari qaysi yozuvchining ijodiga urg‘u berishlari, qanday asar o‘quvchiga yetkazilishini ma‘naviy-estetik va axloqiy hamda tarbiya ahamiyatini dastlab ishlab chiqarishlari, keyin esa darslik ustidaishlashlari shart.

Bizda ushbu masalani yechishda adabiyot va pedagogika fanini chuqur biladigan nomdor olimlarning fikrlari kerak. Adabiyot darslarida matn ustida ishlash, shunchaki o‘qib berish emas, badiiy asarni tahlil tortish, ana shu jihatda qaysi tomonga ko‘proq e‘tibor berish kerak. Adabiyot darslarida barcha o‘quvchilar ham ushbu fanni bir xil o‘zlashtiradi deyish qiyin. Ko‘p kitob o‘qish, mutolaani qoldirmaslik, adabiy muloqotlar so‘z boyligini oshirishni, notiqlikni muhim shartlaridan biridir.

Adabiy tahlilda eng qulay usul o‘quvchilarni har bir matnni o‘zlashtirishga erishdir. Matinda mutolaa jarayonida emotsional holatlarni yuzaga chiqarish, chiroyli o‘qishning ta‘sirchan yo‘llarini topishdir. Toki ma‘lum matn hayotning jonli ifodasini so‘zda ifodalasin. Quyi sinflardan boshlab so‘zning jozibali kuchini o‘quvchilar his qilib borsin.

Ilmiy va adabiy tahlilni yangicha izohlash o‘tiladi.

Darsda qo‘llangan adabiy tahlil bir-birining egizagi bo‘lib qolmasin. Adabiy tahlilda badiiy asarning spesifik xususiyati, janrini hisobga olish kerak. O‘qituvchi badiiy asar tahlili davomida o‘zi ishtirok etishi, ayrim parchalarni o‘zi chiroyli o‘qishi lozim. Chiroyli o‘qishni talab qilgan o‘qituvchi, o‘zi chiroyli o‘qishi kerak.

To‘g‘risini aytish kerak: keyingi davrlarda muruvvat, saxovat, mehr, oqibat, o‘zaro hurmat, kattalarga e‘tibor, samimiylilik, oriyat, ibo, ayollarimizga xos

tortinchoqlik kabi milliy urf-odatlarimiz sezilarli darajada kamaydi. Milliy fikrlash o‘rnida qo‘pollik, sansirash, turli tillardagi so‘zlarni qo‘shib ishlatish, o‘z tilini bilmasdan ajnabiy tilda gapirish, o‘z bolasini o‘z tilida emas, boshlang‘ich sinfda boshqa tilda o‘qitish, mol-mulkka o‘ta ruju’ qo‘yish kabi millatimizni buzadigan qiliqlar, odatlar paydo bo‘ldi. Badiiy asarlarni tanlashda ana shu xususiyatlarni o‘z-o‘zida mujassam asarlarni tahlilga tortish kerak. Toki har bir asardan milliylikni hidi ufurib tursin.

Har bir jamiyat va zamon o‘ziga mos axloqiy qarashlar majmuasiga ega bo‘ladi. Sofoklning “Shoh Edip” tragediyasi maktab darsligiga kiritildi. Unda taqdir azaliy degan g‘oya mavjud. Unda shoh o‘z onasiga uylanadi degan tushuncha yotadi. Biz esa ana shunday tushunchani o‘quvchiga, aqli yetmagan bolaga yetkazdik.

Ana shunday tasodifiy asarlarni kiritmaslik uchun darslik mualliflariga tavsiya berdik, xolos.

O‘tmish ta’limga baho berish uchun prolet kult dohiylaridan biri K.Marksning quyidagi fikriga to‘g‘ri keldik: Tishlash uchun ishlash kerak, ishlaganda bosh bilan emas, qo‘li bilan ishlash kerak. Bu bir yoqlama yaqqol ko‘rinishidir.

Keyingi vaqtlarda rivojlangan mamlakatlarda mutaxassis emas, shaxs tayyorlash vazifasi qo‘yilmoqda.

Ya’ni, bitiruvchi kuchli shaxslik fazilatlariga ega bo‘lishi, ijodiy fikrlashi, hamma narsaga teran ko‘z bilan qarashi lozim. Shaxs bo‘lishi uchun o‘ziga kerakli bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib olishi kerak. Pedagogika muhim o‘z o‘quvchisi shaxsini takomillashtirishni bosh maqsad qilib qo‘yadi.

Barcha pedagog va o‘qituvchilarga bitta talab: o‘quvchi fanni shunchaki o‘zlashtirmasin, balki o‘quvchining ijodiy fikri kerak. Tayyor qoidalarni o‘zlashtirish emas, balki hayotda qanday qo‘llay olishlariga ham e’tiborni qaratish kerak. Bizga fikrlaydigan o‘qituvchi va fikrlaydigan o‘quvchi zarur. Ana shundagina asosiy maqsadga yetamiz. Asrlar davomida yig‘ilib kelayotgan va o‘rganilgan pedagogik tajribalarni o‘rganish o‘rniga yangicha pedagogik qarashlarni hayotga tatbiq qilishga mahliyo bo‘lib kelyapmiz.

Adabiyot darsliklariga nazar solsak, tez-tez ularning mazmuni o‘zgarib ketaveradi. Asliy qanday asarlar va adabiy qarashlar o‘rgatish kerakligini darslik mualliflaridan boshqacha hech kim bilmaydi.

Hozirda yangicha adabiy tafakkur shakllanmoqda. 90-yillarda yaratilgan darslikka kiritilgan badiiy asarlar bugungi texnokratiya davrida talabga javob beradi, deb hech kim ayta olmaydi. Tarbiyada millatimizda xos xususiyatlar borligini ham unutmaslik kerak. Hozir pedagogikada biror mavzuni yod aytib beradigan o‘quvchini ilg‘or an’anaga kirgan. Ayrim o‘quvchilar buni yoqtirmaydilar. To‘g‘ri, o‘qish yodlashga ko‘proq e’tibor berilgan. Bu ma’lum ma’noda o‘zini oqlagan. Axir matnni

yoki ma'lum bir kitobni to'liq yodlamasa, bosqichdan o'ta olmagan. Hozirgi kunning tili bilan aytganda, kursdan kursga o'tishmagan.

Matnni shunchaki yodlash emas, his-hayajon bilan ayrim qo'shimchalar bilan aytirish maqsadga muvofiqdir.

Ta'lim va tarbiya bizda davlat miqyosida e'tibor berilmoqda. Davlatimiz rahbari muntazam ravishda ta'kidlab o'tadilar: maktab, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim va sifat.

Mamlakat taraqqiyoti va kelajagi uchun sifatli maktab ta'limisiz erishib bo'lmasligini ko'pchilik biladi. Xuddi non, suv, havo kabi shu masala tushunarli ma'lum maqsadga erishamiz.

Ta'limda o'qituvchining o'rni beqiyosdir.

U o'quvchiga qobiliyatni, talantini ma'lum sohaga yo'naltirishi kerak. O'qituvchi tashkil etadi, o'quvchi esa ijodkorlik qiladi, fikrlaydi. Har bir mavzuni o'rganishda hayot asos qilib olinishi kerak.

O'quvchi o'rganayotgan bilim va ko'nikmalarni hayotga qo'llay olishlari kerak. Ba'zan deraza ortida, sinfda hayot turibdi. Misollarni, xususan, adabiyot darslarida uzoqdan izlaymiz. Yana o'sha o'qitishdagi oqsoqlik, turg'unlik. Ijodkorlikni, o'z ustida ishlashni unutib qo'yamiz. Oqibatda hayotni bilmaydigan, tushunchalarini unda qo'llay olmaydigan katta avlodga ta'lim va tarbiya berib keldik.

Biz ko'proq ta'kidlab keldik. Ijodkorlik va o'z ustida mutassil ishlash, badiiy asar o'qish va adabiy muhit haqida mushohada yuritishdir.

Maktabda o'quvchi uchun tafakkurini shakllantiradigan, nutqiy qobiliyatni ma'lum bir me'yorga keltirishda, fikrni paydo bo'lishida va mushohada yuritishda adabiy ta'limning o'rni beqiyosdir. Bu haqida soha mutaxassislari o'z fikrlarini bildiradilar. H.G'.Ne'matov, A.K.G'ulomov va boshqalar o'z fikr-mulohazalarini bayon etdilar. Ko'plab olimlarning fikriga tayanib, adabiyot o'qitishning uchta dolzarb muammosi borligini aytib o'tishni lozim ko'rdik: ijtimoiy, ilmiy va pedagogik omillar. Adabiyot o'qitishda ijtimoiy omil shuki, qaramlikdan qutuldik, biroq mafkura hukmronligiga barham berildi, tayyor qolipdagi fikrlar o'rnini ijodiylik egallay boshladi, boshqacharoq qilib aytganda, erkin fikrlovchi adabiyot paydo bo'lmoqda. Yurakdagi his-tuyg'ularni, nozik insoniy munosabatlarni hamda go'zallikka shaydo adabiyot paydo bo'lmoqda. Adabiyot mafkura quroli sifatida emas, balki qalbdagi ezgu, kasb tuyg'ularni ifodasi sifatida qarash shakllanmoqda. Negaki, adabiyot ijtimoiy muammolarni hal qilish vositasi emas, badiiy idrok va badiiy tafakkurdir. Unda hayotiy munosabatlar emas, ko'proq his-hayajon va tuyg'ular munosabati namoyon bo'ladi. Unda ruhiy badiiy idrok bor. Hozirda adabiyotga bo'lgan ilmiy idrok butunlay yangilanmoqda. Adabiyotchini tuyg'ular, ruhiyat musavviri sifatida qarash kerak. O'quvchiga adabiyot hayot emas, tuyg'udan, hissiyotdan iborat ruhiyat olami ekanligini tushuntirish kerakdir. Adabiyotda ko'proq badiiy to'qima ustunlik qiladi.

Shunday bo‘lsa-da, bo‘rttirilgan, qavartirilgan hayot emas, balki unga ham hayot voqealari asos qilinadi. Endi ko‘proq adabiyotdan partiyaviylik, sinfiy axtarilmaydi.

Adabiyot hayotning shunchaki hayotning noturar tasviri emas, balki estetik hodisadir.

Oldingi darsliklar ko‘proq tuzumga xizmat qiladigan g‘oyalar bilan to‘lib toshardi. Ko‘proq yozuvchining ijodi emas, balki fuqaroligiga, qanday mukofotlar olganiga diqqat qilinardi. Ba’zi yozuvchilar o‘z ijodi bilan sodiq fuqarolikdan chiqib ketishardi. Shubhasiz, ularning ijodiga “zapret” qo‘yilardi. Mashhur qalam sohibi A.Qahhorning boshiga bir so‘z uchun qanchalar mashaqqat chekkanini ko‘pchilik bilmaydi. O‘zuvchi o‘z ma’ruzasida (yubiley ma’ruzasi) partiyaning soldatiman deyishi kerak edi. Lekin bu matnga bir so‘z qo‘shadi: Partiyaning ongli a’zosiman. Ana shu “ongli” so‘zi A.Qahhor tomonidan aytilgan kalima unga tuzalmas kasallik, og‘ir dard olib keladi.

Xususan, A.Oripovning ko‘pincha she’rlarini adabiyotni bilmaydigan nodonlar partiyaviylik, sinfiylik nuqtai nazaridan tahrir qilishgan.

A.Oripov, E.Vohidov siyosatdan qochib tarjima bilan shug‘ullangan.

Adabiyot nazariyasidan olgan ko‘nikmalarini, nazariy bilimlarini badiiy asarni o‘qish va tahlil qilishda endilikda qo‘llash imkoniyati tug‘iladi. G‘azal haqidagi nazariy ma’lumotni yodlash emas, darsning o‘zida qo‘llash kerak. Badiiy asardagi sof insoniy fazilatlarni, go‘zal tuyg‘ularni, nafosatni o‘zida singdirgan o‘quvchilar jamiyat uchun asqatadi. Chunki ular adabiyotning sof insoniy vazifasini tushunishadi.

Bu esa insonni loqaydlikdan, qalb xastaligidan qutqaradi. Qalb bemorligi uchun adabiyot javobgar ekanligini sira unutmaslik kerak. Adabiyot darslarida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabati pedagogik tamoyillari asosida qurilishi, samimiyat va o‘zaro hurmat bo‘lishi, o‘qituvchining shaxs sifatida o‘rni bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. – Т. 2004
2. Parda Alimov. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TODAY’S UZBEK NOVEL AND FORMAL RESEARCH. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(6), 80–83.
3. Барт Р. Избранные работы. Семиотика. Поэтика. – М., 1989.
4. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2023). Temuriy malikalarning fojaviy taqdirleri tasviri. Journal of Universal Science Research, 1(5), 1291–1298.
5. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М., 1979.
6. Qurbonova Gavhar Xurramovna. (2024). O‘ZBEK TILIDA BA’ZI OSMON JISMLARINING O‘ZLASHMA SO‘ZLAR VA TASVIRIY VOSITALAR BILAN IFODALANISHI. PEDAGOGS, 56(2), 31–34.

7. Saidmuradova Sakhiba Jalmurodovna, & Kholmurodova Khursandoy. (2024). The Issue of Artistic Psychologism in Modern Uzbek Prose. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 2(1), 301–304.
8. Sayfullayev Najibullo, Boboniyozova Manzura. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(02).
9. Shaxnoza Majidova. (2021). HISTORY OF THE STUDY OF HYDRONYMS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 676–680.
10. Боров Ю. Искусство интерпретации и оценки. – М., 1981.
11. O‘rolova , M., & Sayfullayev , N. (2024). O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA MORFONOLOGIYAGA DOIR TALQINLARI VA XUSUSIYATLARI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, (5(42).
12. Avriddinov Jobir Musulmon o‘g‘li. (2023). "ZUFONGO‘YO VA JAHONPOYO" LUG‘ATIDA SO‘Z TARKIBI. *IMRAS*, 6(7), 565–569.
13. Nigora Jo‘ranazarova Qurbonboy qizi. (2023). BOLALAR ADABIYOTIDA IBORALARNING LISONIY-SEMANTIK XUSUSIYATI. *PEDAGOGS*, 46(1), 57–62.
14. Бушмин А.С. Методологические вопросы литературоведческих исследований. – Л., 1969.
15. Parda Alimov. (2023). Muhammad Yusuf ijodida Vatan, ona, muhabbat mavzularining badiiy talqini. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(1), 63–75.
16. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SO‘Z TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(4), 34–37.
17. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. –Т.: Ўзбекистон, 1993.
18. Nodira Hamidova 2023. Ghafur Ghulam’s Stories Have Their Own Artistic Expression Characteristic of the Common Language Style. *International Journal on Integrated Education*. 6, 10 (Oct. 2023), 41-44.